

## AMERIKA TRIPSI VA UNGA QARSHI KURASH CHORALARI

*To’raboyev Mirzarakmat Baxtiyor o’g’li*

*To’lakova Azizaxon Sherzodbek qizi*

**Annotatsiya:** O’zbekiston ichki bozorida yuqori talab ko’rsatkichga ega bo’lgan oziq-ovqat maxsulotlari orasida bodring mevasining o’rni beqiyosdir. Ushbu talabni qondirishdagi eng dolzarb masala esa bodring ekini zararkunandalardan ximoya qilish va undan yuqori xosil olishdir.

**Kalit so’zlar:** O’simlik, bodring, trips, hashorot, so’rvuichi, zararkunanda, nimfa, pronimfa, imago.

**Bodring.** Takroriy muddatda ekish uchun unumdor, organik moddalariga boy, nam sig’imi yuqori, sizot suvlari yuza joylashgan va sho’rlanmagan yerlar tanlanadi. Tuproq nordonligi 5,5 – 5,8 bo’lgan joylar o’simlik rivojlanishi uchun qulay hisoblanadi .

Bodringni ochiq maydonlarda yetishtirish uchun uning mahalliy Ranniy 645, “shabnam”, “Omad”, “Talaba”, “Nafis”, “G’olib”, “Sevinch” kabi navlar ekish tafsiya etiladi .

Yer yuzida ekinlarni bir necha yuzdan ortiq turdag'i xavfli zararkunanda xasharotlar zararlaydi va ularga qarshi har yili juda katta mablag' va ishchi kuch sarflanadi . Dunyo olimlarining ushbu zararkunandalarning bioekalogik rivojlanish xususiyatlarini ilmiy asosda chuqur o’rganish bo'yicha ko’p yillik izlanishlari majvud .

1986-2000 yillarda o’tkazilgan tajribalarda Respublikamizda ituzumdoshlari oilasiga mansub ekinlarda 15 oilaga mansub 51 turdag'i zararkunandalar uchrashini qayd etgan. Ulardan 40 turi pomidor va baqlajonda, bodringda esa 48 turi qayd etilgan.

Keyingi yillarda yana zararkunanda paydo bo’ldiki, uning qishloq xo’jalik ekinlariga keltirayotgan zarari ortib bormoqda. Bu asosan turli sabzavot, poliz va boshqa ekinlarda uchravayotgan va tobora boshqa ekinlarga xam moslashayotgan

amerika (kaliforniya) ( Echinotrips americanus Morgan ) tripsidir. Bu zararkunanda respublikamizda adventive tur xisoblanadi. Mintaqamizning qulay iqlim sharoiti bu zararkunandaning rivojlanishiga turtki bergen.

Amerika tripsi (ayrim manbalarda koliforniya tripsi deb keltirilgan) xoshiya qanotlilar yoki trips turkumiga mansub bo'lgan mayda oddiy ko'z bilan ko'rish qiyinroq. Kaliforniya tripsining vatani shimoliy Amerikaning janubiy sharq qismi xisoblanadi. XX asr oxiri XXI asr boshlarida turli xil kontinentlar va dunyo mamlakatlarida o'ziga xos invizion ko'rinishda antrapogen yo'l bilan tez tarqaladi.

Amerika tripsi xammaxo'r (po'lifag) zararkunanda bo'lib o'simlik barglari, gullari, poyalari xamda mevasiga zarar keltiradi. Zararkunanda asosan issiqxonada xarorat +25°C da va havo namligi 70-80 % bo'lganda tez ko'payadi. Bir avlodning rivojlanish davri 12 kundan 35 kungacha bo'lib, bir yilda 12-15 tagacha avlod beradi. Tripslar issiqxonalarda qishlovga ketmasdan doimiy ravishda yashab, erta bahorda ochiq maydonga tarqaladi. Issiq xududlarda esa ochiq yerlarda qishlaydi. Erkak trislarning yetuk zotlari 20 kungacha, urg'ochilari esa 40 kungacha yashab, otalangan urg'ochi zotlari bir oyda 250-300 tagacha o'simlikning barg, poya, gul va mevalariga tuxum qo'yadi. Tuxumdan 25°C da 2-4 kunda lichinka chiqib ular yoppasiga o'simlikka chang soladi. Zararkunanda bodring to pishib tamom bo'lguncha tinmaydi. Bodring nihollik paytida trisp bilan zararlansa o'simlik nobud bo'ladi. Zararkunanda bodring mevasini zararlasa, meva rivojlanmasdan bukilib, sifatini yo'qotadi.

Hasharot tasirida o'simlikning yirik mevalarida uzunasiga oq dog'lar paydo bo'lib, mevaning uchidan boshlab yorilish xosil bo'ladi. O'simlikning o'suv davomida bo'ladigan fiziologik va biokimyoviy jarayonlar buzilishi natijasida 60-70% gacha xosil yo'qotiladi. Kaliforniya tripsining yana bir xavfli tomoni shundaki, ular issiqxonadagi ekinlarda virus va zamburug'li kasalliklarni tarqatib yuboradi. Trips tasirida barglardagi fotosintez jarayoni keskin buziladi.

Barcha mintaqalarda tarqalgan tripslar tabiatta 6 mindan ortiq turlari mavjud. Hasharotlar o'simliklar bilan oziqlanishga ixtisoslashgan, aksariyat hollarda ular

qishloq xo'jaligi ekinlarini tanlaydi. G'arbiy gul tripsi karantin obyktlariga tegishli bo'lib, 300 xil o'simlikka zarar yetkazadi .

Hasharotning gavdasi 3qismdan iborat bo'lib, qorin qismi 10 bo'lakdan iborat. Hasharotlarning uchiga qaragan bir juft tor uzun qanotlari bor. Chetta ular siliya bilan o'ralgan . Qanotlarning maxsus tuzilishi tripslarga oziq-ovqat izlash va tuxum qo'yish vaqtida bir o'simlikdan ikkinchi o'simlikka uchib o'tish uchun imkon beradi. Hashorotlar jinsiy dimarfizimga ega. Trips-to'liq bo'limgan metamorfozli hasharotlar. Rivojlanishda quyidagi bosqichlar almashtiriladi: tuxum, lichinka, nimfa, pronimfa, imago. Urg'ochilar juftlashgandan so'ng poya, gul, barglarga 100 tagacha tuxum qo'yadi . Tuxumlari yengil, o'lchami 0,2 mm, shakli loviya shaklida. Pishib yetish vaqtি haroratga bog'liq

Tripslar turli virusli kasalliklarning tashuvchisi hisoblanadi. Zararkunandalar koloniyasining hayotiy faoliyati tufayli zaiflashgan ekinlar dog'li vilt virusiga qarshi himoyasizdir. Nomiga qaramay, kasallik 1000 o'simlik turiga ta'sir qiladi, bu esa katta iqtisodiy zarar keltiradi .

### **Qarshi kurash usuli.**

**Kimyoviy yo'l bilan oldini olish:** Bodringdagi kaliforniya tripsiga qarshi "Lambatin" 29.56% e.k. preparatidan 2 xil (1.5-2.0 l/ga) sarf meyyorida sinaladi. Andoza sifatida esa "Karate" 5% e.k. 0.5l/ga xisobida qo'llanildi. "Lambatin" 29/56% e.k. preparatini 1.5-2.0 l/ga miqdorida qo'llanilgan variantlarda biologik samaradorlik yuqori bo'ladi. Bunda preparat qo'llanilgandan so'ng 6-kuni 93%, 7-kuni esa 94% amerika tripsi nobud bo'lishi kuzatilgan.

Demak, bodringda kaliforniya tripsiga qarshi "Lambatin" preparatini (1.5-2.0 l/ga) qo'llanilsa, kutilgan natijaga erishiladi va bir vaqtning o'zida boshqa turdag'i so'ruvchi va kemiruvchi zararkunandalarga xam kurash olib boriladi

**Xulosa:** Hasharotlar zararkunandalari bodring hosildorligining pasayishining umumiyl sababidir. Hasharotlarni o'z vaqtida aniqlay olish va ularga qarshi kurashish uchun zarur choralarini ko'rish kerak. Bodring infektsiyalarga juda moyil. Agar davolanish o'z vaqtida boshlanmasa, o'simliklar nobud bo'ladi. Kasalliklarning oldini

olish, to'g'ri tashxis qo'yish va patogenlarni yo'q qilish bo'yicha o'z vaqtida ko'rilgan choralar unumdonlikni saqlash va hosilni oshirishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. M. Mahammedov. Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini . Toshkent 2019 – yil 1- nashr 23-b.
2. Rustam Nizomov, Faxriddin Rasulov. O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi. 2020 – yil 6- nashr 18-b
3. D. Nuraliyeva . Agro ilm-O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi. 2020-yil 2-nashr.
4. M.T.Arslanova,A.U.Sagdullayev,SH.K.Aliyev,O.T.Xujayev, X.Z.Abdullayeva. O'simliklar karantini zararkunandalari tarqalishining oldini olish. Toshkent. 2016
5. Rustam Nizomov , Faxriddin Rasulov . O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi . 2020 – yil 6- nashr.